



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал



№ 5/2 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

5/2-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2024

октябрь

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Захия НАРИМБЕТОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ	Уролбай МИРСАНОВ
Сапардурды АБАЕВ	Сафо МАТЧОН
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ	Абдулхамид МИРЗАЕВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Камаладин МАТЯКУБОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Алима МАТКАРИМОВА
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Қалыбай ПРИМБЕТОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Раъно ОРИПОВА
Мариғжон АХМЕДОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Норим РАХМАНОВ
Фарҳад БАБАШЕВ	Мұқаддас РАХМАНОВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Дурдана РАХМАТУЛЛАЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Шахло БОТИРОВА	Феруза САПАЕВА
Комил ГУЛЯМОВ	Мухаббат САЛАЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Аскар ДЖУМАШЕВ	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Дилдора ДАВРОНОВА	Нурзода ТОШЕВА
Мұхтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Алишер ЖУМАНОВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Саодат ТОШТЕМИРОВА
Холбай ИБРАГИМОВ	Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Шохида ИСТАМОВА	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Умида ИБРАГИМОВА	Амангелди КАМАЛОВ
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)	Ризамат ШОДИЕВ
Джавдод ПҮЛАТОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент, Қазақстан)	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Пердебай НАЖИМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Аскарбай НИЯЗОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Сабит НУРЖАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
	Гавхар ЭШЧАНОВА
	Қонысбай ЮСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Alniyazov A.I.	Ana tilinde ózinshe pikirlewdi rawajlandírw mäseleleri	8
Suyunov B.T.	Lakunar birliklar tezaurusi	16
Shofqorov A.M.	Kelishik kategoriyasining o'rganilish tarixiga doir	20
Xudaykulov Sh.U.	Xorijiy til ta'limda kognitiv-kommunikativ yondashuv	26
Hafizova M.A.	Tarjima va badiiy mahorat	34

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Abdullayeva M.R.	Pedagogik yo'nalishdagi talabalarning huquqiy kompetensiyalari muhim xususiyatlari	41
Baxodirova U.B.	Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda virtual ta'lim texnologiyalardan foydalanan muammolar	47
Shonazarova S.R.	O'quv jarayonida falsafiy aksiolistik yondashuvni takomillashtirishning pedagogik shart - sharoitlari	55
Sabirova O. Sh.	Zamonaviy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanan	61
Bozorov H.N.	Nofizik ta'lim ta'lim yo'nalishlarining malakaviy tavsiflari tahlili, kasbiy kompetensiyalar tuzilmasi va ierarxiyası	66
Nigmanova U.B.	Bo'lg'usi o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini tadbiq etish yo'llari	72
Alimov M.	Iqtidorli yoshlar-kelajagimiz poydevori	77
Qurbanova M.E., Abdulaxatova M.A.	Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri usulida talabalarga kimyo fanini o'qitishda o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish masalalari	81
Qurbanova M.E., Abdulaxatova M.A.	Klaster yondashuvi asosida bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	85
Arslonova G.K.	Individual ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari	90
Matkarimova M.K.	Ingliz tili fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish	96
Umirova N. J.	Individual yondashuv asosida bo'lajak maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi	101
Эшанев Н.Ж.	Замонавий инновацион таълим мухитида мобил мутахассис тайёрлашнинг ижтимоий зарурат эканлиги илмий тадқиқотларда акс этиши	105
Sa'dullayeva M.H.	Mukammal xotira va eslab qolish sirlari	114
Mirzakarimov X.Yu.	Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirishning konseptual jihatlari	122
Eshnaev N.J.	OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash va kasbiy yo'nalganlikning ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanishi hamda samaradorligi	129
Dehqanova M.G.	Daktilema paydo bo'lishi va uning foydalananish turlari	135
Karatayeva L.U.	Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari	141
Yuldasheva S.M.	Shaxsning kasbiy faoliyatida uchraydigan asosiy psixologik muammolar	150
Amangeldiyev S.N.	O'smirlarda kuzatilayotgan irodasizlikni keltirib chiquvchi sabablar	156
Dilmurodova Z.D.	Shaxsda qobiliyat rivojlanishining pedagogik-psixologik omillari	159
Ибадуллаева Ш.Н.	Maxsus pedagoglarni kasbий фаолиятга тайёрлаш механизмларини takomillashtiriш ижтимоий-педагогик муаммо сифатida	162
Tojiboev M.N.	Talabalardan tafakkurini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	168
Meyliyeva M.S.	Tafakkurning innovatsion rivojlanishiga pedagogik hamda psixologik faktorlarning ta'siri	176
Mirzraximova G.I.	Nutq faoliyati va ularning xususiyatlari	179
Yunusova X.Sh.	O'zbekiston respublikasida inklyuziv ta'limni tadbiq qilish masalalari	185



OTMLARDA MOBIL MUTAXASSIS TAYYORLASH VA KASBIY YO‘NALGANLIKNING ILMIY TADQIQOT NATIJALARIGA ASOSLANISHI HAMDA SAMARADORLIGI

*Eshnaev N.J.
ChDPU Psixolgiya kafedrasi dotsenti*

Tayanch so‘zlar: mobililik, kasbiy yo‘nalganlik, ta’lim, sohalar drayveri, aniq tizim, barqaror rivojlanish trayektoriyasi, ilmiy tadqiqot, intellekt, soha, istiqbolli strategiya, prognozlash, innovatsion omillar, uzlusiz muvofiqlashtirish.

Ключевые слова: мобильность, профессиональная ориентация, образование, драйверы отрасли, четкая система, траектория устойчивого развития, научные исследования, разведка, промышленность, перспективная стратегия, прогнозирование, инновационные факторы, непрерывная координация.

Key words: mobility, professional orientation, education, industry drivers, clear system, sustainable development trajectory, scientific research, intelligence, industry, forward-looking strategy, forecasting, innovation factors, continuous coordination.

Резюме:

Mazkur maqolada, jamiyat miqyosida raqobatbardosh iqtisodiyotni, barqaror ijtimoiy infratuzulmalarni, bo‘shliqsiz madaniy muhitni, jamiyatni harakatga keltiruvchi va faoliyatlar muvofiqligini ta’minlovchi mobil mutaxassislarni tayyorlashni ilmiy tadqiqotga hamda ta’limtarbiya muhitini zamonaviy innovatsion pedagogik omillarga muvofiqlashtirish va ta’limdagi mobillilik omillarini rivojlantirishning strategik jihatlari yoritilgan.

Резюме:

В данной статье в научных исследованиях и координации деятельности обсуждаются конкурентоспособная экономика на уровне общества, стабильные общественные отношения, культурная среда без разрыва, подготовка мобильных специалистов, которые мобилизуют общество и обеспечивают совместимость деятельности. Выделена образовательная среда с современными инновационными педагогическими факторами и в образовании стратегические аспекты развития факторов мобильности.

Summary:

In this article, the competitive economy at the level of society, stable social relations, a cultural environment without a gap, the training of mobile specialists who mobilize society and ensure the compatibility of activities are discussed in scientific research and the coordination of the educational environment with modern innovative pedagogical factors and in education. strategic aspects of the development of mobility factors are highlighted.



Informatsion jamiyatda barcha sohalarda bo‘layotgan o‘zgarish va rivojlanish, zamonaviy ilg‘or g‘oya va loyihalarni yuzaga kelishi hamda ularni real hayotda realizatsiya etishning tez sur’atlar bilan o‘sib borishi, ijtimoiy-madaniy hayotning barcha sohalarida innovatsion jarayonlarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Bugungi dunyoda innovatsiyalar, jamiyat hayoti madaniy jarayonining umumiyyatini o‘zida aks ettirib, ijtimoiy tashkil etilgan tizimlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishning strategik maqsadiga aylanmoqda hamda iqtisodiy sohalar drayverini harakatga keltiruvchi omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon, bevosita aniq tizimga asoslangan va barqaror rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘lgan ilm-fan moduli bilan tavsiflanadi. Bugungi kun jamiyatning barcha sohalarini taraqqiyoti va ertangi kunning istiqbolli strategiyasini belgilash va proqnozlash innovatsion omillar bilan tavsiflangan ta’lim jarayonini uzlusizligini qanday tashkil etish va muvofiqlashtirish bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan, jamiyat miqyosida raqobatbardosh iqtisodiyotni, barqaror ijtimoiy infratuzulmalarni, bo‘shliqsiz madaniy muhitni, jamiyatni harakatga keltiruvchi va faoliyatlar muvofiqligini ta’minlovchi, davlat va jamiyat manfaatlariga muvofiqlashtiruvchi yuksak ma’naviy dunyo qarashga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash, innovatsion g‘oya va loyihalarni tizimli shakllantirish hamda vatanparvarlik elementlarini shaxs xususiyatida qaror toptirish bugungi kunda tashkil etiladigan ta’lim va uni amalga oshiradigan pedagog hamda ta’limtarbiya muhitini qanchalik zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg‘unlashganligiga bog‘liq.

Darhaqiqat, XXI asr dunyoda ijtimoiy rivojlanish istiqbollari va madaniy-ma’naviy barqarorlik, istiqbolli iqtisodiy yuksalish asosan ta’lim tizimining holatiga hamda uning shaxs va jamiyatning yuqori sifatli ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda davlat ta’lim standartlarini qayta ko‘rib chiqish hamda zamonaviy o‘quv jarayon talab va tamoyilidan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonining asosiy elementlarini yangilash maqsadga muvofiq. Bunda asosan, zamonaviy ta’lim mazmuni, uning o‘qitish texnologiyasi, nostonstandart ta’limni qo‘llab-quvvatlash fondlarni ko‘paytirish va huquqiy bazalarni liberallashtirish, shuningdek, ta’lim tizimining barcha elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni innovatsion omillarga muvofiqlashtirgan holda, ta’limdagi mavjud buyrokratik yondashuvni ta’lim “hayotidan” siqib chiqarish taqozo etiladi.

Mazkur yondashuv, ta’lim muhitini va unda sodir bo‘layotgan jarayonlarni o‘zgartirishni taqozo etgan holda, ta’limda kompleks o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirgan innovatsion loyihalarni joriy etishni hamda professor-o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatiga bo‘lgan kasbiy kompetensiyasini zamon talabi nuqtai


nazaridan o‘zgartirishini, shuningdek, zamonaviy ta’lim samaradorligi mezonini ishlab chiqish kun tartibiga qo‘yadi.

Bugungi kunda innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishning konseptual g‘oyasi davlat ta’lim siyosatini zamonaviy kompleks taraqqiyot trayektoriyasiga asoslanishini, maqsadli ta’limni tashkil etish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori natijalarga erishishga qaratilgan ta’lim tizimini barqaror innovatsion rivojlanish omillari bilan tavsiflanishi va uning zamonaviy mexanizmlarini yaratish bilan tavsiflanadi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tashkilotlarida innovatsiyalarni joriy qilish "yangi", "innovatsiya" va "innovatsion jarayon" kabi tushunchalarini olib kirilishi hamda mazkur tushuncha va yondashuvlarning mohiyatiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, oliy ta’lim dargohlari jamiyat uchun mobil mutaxassislarni tayyorlashda inson kapitali bilan bog‘liq masalalarni mintaqaga va butun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining mezonini belgilovchi aspekt sifatida e’tirof etish hamda ilmiy tadqiqot asosida o‘rganish lozim.

2021 yilda Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogik instituti (hozirgi Chirchiq davlat pedagogika universiteti) talabalarini kasbiy ko‘nikma va malakalarini muvaffaqiyatli mustaqil o‘zlashtirish hamda intellekti va kasbiy yo‘nalganligi (N.J.Eshnaev tomonidan) o‘rganilganda quyidagi natijalar qayd etildi.


Institut talabalari intellekti va kasbiy yo‘nalganligi



Institut talabalari intellekti va kasbiy yo‘nalganligi

1-kursda tahsil olayotgan talabalarning 66% da kasbiy yo‘nalganlik o‘rta darajada bo‘lsa (6% past), intellekt 39% o‘rta darajani (9%past) qayd etdi.


2-kurs





2-kursda tahsil olayotgan talabalarning 66% da kasbiy yo‘nalganlik o‘rta darajada bo‘lsa (5% past), intellekt 53% o‘rta darajani (15%past) qayd etdi.

3-kurs



3-kursda tahsil olayotgan talabalarning 52% da kasbiy yo‘nalganlik o‘rta darajada bo‘lsa (12% past), intellekt 42% o‘rta darajani (20%past) qayd etdi.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, institutda tahsil olayotgan umumiyl talabalarning 61,3% da pedagogik kasbiy yo‘nalganlik o‘rta darajada, 44,6% da intellekt o‘rta darajada ekanligi aniqlangan hamda 7,6% kasbiy yo‘nalganlikning past darajasi qayd etilgan. 7,6% kasbiy yo‘nalganlikning past darajasini qayd etilishi bu normal holat deb qabul qilinishi mumkin. Sababi bu toifadagi talabalar OTMni tamomlagandan keyin xalq ta’limi tizimida faoliyat olib bormasligini o‘zları ham yaxshi bilishadi. Ammo institutda tahsil olayotgan talabalarning kasbiy yo‘nalganligi 61,3% da o‘rta darajani qayd etishi respublika OTMlар orasida reytingini tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Bizning nuqtai nazarimiz va ilmiy prognozimizga ko‘ra kelgusida har bir OTMning reytingi uning kadrlar bandligi va xalq ta’limi tizimida erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo‘lsak bu borada o‘z vaqtida zaruriy chora-tadbirlar rejasimi ushbu ilmiy proqnoz nuqtai nazaridan kelib chiqib tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ahamiyatli jihat shundaki, kasbiy yo‘nalganlik va intellektning o‘rta darajasini yuqoriligi tadqiqotda o‘rganiligan 3 ta bosqich talabalarida kichik farqlar bilan namoyon bo‘lmoqda. Aytmoqchimizki, birinchi kurs bo‘lgani uchun ham shunday bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan tushuncha ham ba’zi mutaxassislar tomonidan e’tirozli fikrlarni bildirilishga sabab bo‘lishi mumkin. Biroq bizning fikrimizcha bu pedagogika institutiga kelgan talabalarida kasbiy yo‘nalganlik 95%dan kam bo‘lmasligi kerak. Kasbiy yo‘nalganlikning negizida, kasbiy qiziqish, layoqat va bu kasbdan oladigan moddiy va ma’naviy manfaatdorlik, jamiyatda pedagog maqomning yuqoriligi yotadi.

Kasbiy yo‘nalganlikning past darajasini keltirib chiqaruvchi asosiy ijtimoiy - psixologik sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- Shu kungacha o‘qituvchi kasbining ijtimoiy-ma’naviy jihatda maqomi tushib ketganligi;

- xalq ta’limi tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatidajtimoiyahamiyatgaegab o‘lganyetarliyutuqlargaerishmaganligi(uning shaxsiy va kasbiy maqomini oshirish va motivatsiya beradigan); o‘qituvchining jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik darajasini ta’minlanmaganligi (qonun va qarorda ko‘rsatilgan bo‘lsada amalda o‘z natijasini bermaganligi); o‘qituvchiing – o‘quvchi nigohida obro‘sni va maqomi ba’zi sabablarga ko‘ra sun’iy ravishda tushirib yuborilganligi (davlat va nodavlat tashkilotlarni o‘qituvchi va o‘quv faoliyatga noqonuniy aralashuvining ko‘payib ketganligi); o‘qituvchining obodonlashtirish ishlariga jalb etilganligi (ta’lim beruvchi pedagogni yoshlarga sinfda ta’lim va tarbiya berish bilan bog‘liq funksional vazifasi qolib ketib, ko‘cha ishlariga jalb etish orqali USTOZ degan “Buyuk unvon”dan jamiyat yoshlari ko‘z o‘nida mahrum qilganligi); o‘qituvchi shaxsi va kasbini jamiyatda qadr topmaganligi (Yoshlar nazdida o‘qituvchi kasbi eng nufuzi past kasb sifatida e’tirof etilishi, hamda ularning miyasida ongsiz va anglanmagan holda ushbu kasbga nisbatan ikkinchi qolaversa oxirgi ilojsizlikdan egallanishi lozim bo‘lgan kasb darajada dasturlanib qolganligi); o‘qituvchi faoliyati davlat va jamiyat tomonidan moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilmaganligi; o‘qituvchi faoliyati davlat va jamiyat tomonidan noqonuniy tarzda qo‘srimcha faoliyatlarga muntazam jalb etib kelinganligi; ustoz va shogird munosabatlarining yo‘q bo‘lib ketishi; jamiyatda o‘qituvchi o‘z kasb bilan o‘quvchi va boshqa kasb egalari oldida jamiyatdagi maqomi va nufuzi bilan faxrlana olmaganligi; o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi subordinatsiyaning yo‘qolganligi; o‘qituvchilik kasbi bilan oila boqish va farzandlarni munosib tarbiyalab hamda shakllantirish borasida yoshlarda mavjud shubhalarning ustunligi; jamiyatning boshqa sohalari tomonidan o‘qituvchi kasbiga past nazar bilan qaralganligi bularning bari yoshlarda o‘qituvchilik kasbiga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga, qobiliyatlarining so‘nishiga olib kelgan (Sh.M.Mirziyoyev Prezident bo‘lib hokimiyat tepasiga kelgan ilk kunda boshlab o‘qituvchi maqomi davlat va jamiyat tomonida yuksak darajada e’tirof etilib, barcha kasblar toji hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi yagona soha ekanligi, unda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi maqomi oshirilib, moddiy va ma’naviy rag‘bat davlat darajasidagi siyosiy ustuvor vazifa etib belgilandi).

Ushu masalalar bilan bog‘liq muammolarni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan taklif: har bir o‘quvchi(talaba)da pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish oliy sharaf ekanligini innovatsion ta’lim klasteri asosida ya’ni hududiy klasterning tizimli modelini ishlab chiqish orqali oila, MTM va maktab kesimida milliy qadriyat darajasiga olib chiqishning ma’naviy-ma’rifiy va psixologik mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish; yoshlar (ba’zi ota-onalar) ongida o‘rnashib qolgan o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan eskicha qarash (hurmatsizlik, jamiyatda qadr



topmagan kasb sifatida e'tirof etilganligini) larni ijtimoiy-psixologik treninglar asosida bartaraf etish va bu kasbga nisbatan simpatiyani yuqori darajasini qaror toptirish; ta'limda amaliyotchi psixolog kasbini joriy etish barcha soha uchun kasbiy yo'nalghanlik va intellekt bilan bog'liq bo'lgan muammolarning oldini oladigan asosiy va yagona yechim ekanligini ilmiy-amaliy tadqiqot yoki maqsadli grant doirasida olib berish; OTMdala talabalarining o'z kasbiga bo'lgan qiziqishni oshirish va unga mas'uliyat bilan yondashish borasida ijtimoiy-psixologik seminar va treninglar tashkil etish; OTM professor-o'qituvchilari talabalar bilan ishslash jarayonida ularga ko'proq kasbiy motivatsiya berishi; OTMdala sohaviy kurslar o'rtasida intellektual o'yinlarni joriy etish va ommalashtirish; individual va guruhiy mas'uliyatni shakllantirish; OTMning kelgusidagi istiqboli va reytingi shu joyda tahsil olgan talabalarining jamiyatda faoliyati va kasbiy yutuqlari bilan belgilanishini barcha fan professor – o'qituvchilari ta'sirchan metodlardan foydalangan holda talabalar ongiga dasturlashi; OTMdagi psixologiya kafedrasи professor-o'qituvchilari metodik ko'rsatma va tavsiyalarni ishlab chiqishi hamda talabalar bilan bu boradagi treninglarni o'tkazib borishi.

- OTM va xalq ta'limi tizimida pedagogik kasbiy kompetentlik fanini joriy etish va o'qitish borasida chora –tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish lozim.

Mazkur yondashuv pedagogika sohasiga yo'naltirilgan OTMlar faoliyat istiqbolini belgilab, kelajakda davlat va jamiyat uchun xizmat qiladigan yosh avlodni ma'nан va aqlan yetuk hamda mobil ko'nikma va malaka bilan kamolotga yetishini ta'minlovchi mutaxassislarni tayyorlashga zamin bo'lib, barcha sohada o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon etish kompetentligini yuzaga chiqarishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Eshnaev N.J. Character as an individual and psychological feature // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. 2021. №2 Issn, 2181-1776.
2. Eshnaev N.J. Negative impact of discriminatory factors on mobile and adaptive relationships of students // science and innovation international scientific journal volume 2 issue 5 may 2023 Uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 |
3. Pankova T.N., Larina E.B. The influence of immersive learning on professionally mobile specialists // Sovremennaya ekono-mika: problemy i resheniya, 2015, no. 2 (62), s. 82-89.
4. Pankova T.N. Professionalnaya mobilnost kak neot'emlemaya xarakteristika sovremenennogo spesialista v sisteme nepreryvnogo professional-nogo obrazovaniya // Vestnik Voronej. gos. un-ta. Ser.: Problemy vlysshego ob-razovaniya, 2013, no. 1, s. 99-102.
5. Solonenko V.A. Formirovanie pro-fessionalnoy mobilnosti budushix ekonomistov-menеджеров v obrazova-telnom protsesse vuza. Dis. Bryansk, 2010.
6. Eshnaev N.J. Bo'lajak pedagog mutaxassislarning kasbiy mobillilagini shakllantiruvchi omillarni ilmiy-nazariy tahlili // Mug'allim ham yzliksiz bilimlendiriw. 2023. №3/2.-B. 102-108
7. Eshnaev N.J. OTMdala zam'onaviy mobil mutaxassis tayyorlashning ijtimoiy pedagogik-psixologik omillari // Kasb humar ta'limi. 2023. №3. –B.221-225

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

**«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИҮ»**

№ 5/2

Нөхис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.10.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нұсқасы _____ Буйыртпа №